


TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR-kod



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasining Milliy malaka ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, "Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi"ga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi.

Tarmoq malaka ramkasi mazkur sohadagi mutaxassislarning malaka darajalarini yagona yondashuv asosida tasniflaydi hamda kasbiy standartlarni ishlab chiqish, malakani baholash, shuningdek mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish mexanizmlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi – mazkur yo'nalishlarda malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini shakllantirish, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek soha va tarmoqning strategik rivojlanish ustuvorliklarini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasiga muvofiq mavjud malakalarga qo'yiladigan yagona talablarni belgilashdan iborat.

Shuningdek, Tarmoq malaka ramkasi tarmoqlararo kompetensiyalarni hamda turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini inobatga olgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashni ta'minlaydi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy vazifasi — mehnat munosabatlari, mehnat resurslarini boshqarish, mehnatni muhofaza qilish, kadrlar siyosati va inson resurslarini rivojlantirish sohalari bilan bog'liq kompleks faoliyat turlarini qamrab olgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy va istiqbolli yondashuvlarni hisobga olgan holda ishchilarning mehnat funksiyalari (harakatlari), ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Mazkur Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar (axborot) majmui.

Kasb – maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladigan, muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq kasbiy faoliyat turi.

Ko'nikma (mahorat) – shaxsning mehnat vazifalarini belgilangan talablar asosida to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va amaliy tajribani muayyan sharoitda qo'llay olish qobiliyati, shu jumladan, takrorlanuvchi harakatlarni ma'lum darajada avtomatik tarzda bajarish layoqati.

Mas'uliyat va mustaqillik ko'rsatkichi – xodimning umumiy kompetensiyasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik (boshqaruv) faoliyati.

Malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalovchi bilim, ko'nikma (mahorat), qobiliyat va kompetensiyalar darajasi bo'lib, belgilangan tartibda tegishli hujjat bilan tasdiqlanadi.

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi taklifini (jumladan, rasmiy, norasmiy va informal ta'lim natijalarini) muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi huquqiy hamda institutsional vositalar va mexanizmlar majmui.

Guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini ifodalovchi tasnif birligi bo'lib, u faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi.

Sinf – guruh doirasida iqtisodiy faoliyatning o'rta darajada aniqlashtirilgan turlarini ifodalovchi tasnif birligi bo'lib, guruh ichidagi nisbatan tor doiradagi faoliyatni belgilash uchun qo'llaniladi.

Kichik sinf – iqtisodiy faoliyat turlarini eng yuqori aniqlik darajasida tasniflovchi tasnif birligi bo'lib, sinf doirasidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-410-son Qonuni (yangi tahriri);

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 25-iyundagi "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi SQ-143-V-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-avgustdagi "Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-126-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-347-son Qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-son Qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024yil 7-maydagi «Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 267-son qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT-2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi.

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi — bu milliy mehnat bozorining barcha sohalarida samarali faoliyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi, tashkiliy-boshqaruv, axborot-analitik, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarni qamrab olgan strategik tarmoq hisoblanadi.

Mazkur soha mehnat munosabatlari tizimini boshqarish, inson resurslarini rivojlantirish, kadrlar siyosati va malaka tizimini takomillashtirish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, mehnat bozorida bandlik va ish o'rinlarini yaratish, mehnat muhofazasi va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish kabi faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi — bu turli tarmoq va sohalaridagi mehnat munosabatlari, kadrlar rivojlanishi, malaka baholash tizimlari, kasbiy standartlar, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini ta'minlovchi yagona funksional tizimdir.

Sohada mehnat munosabatlarini huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish, mehnat resurslarini samarali taqsimlash, raqamli mehnat bozori tizimlarini joriy etish, malaka tizimini milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, mehnat muhofazasi va xavfsizlik madaniyatini kuchaytirish, mehnat sohasida gender tengligi va inklyuzivlikni ta'minlash kabi ustuvor vazifalar amalga oshiriladi.

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

N seksiyasi – Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish;

O seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot;

T seksiyasi – Uy xizmatchilari yollovchi va o’z iste’moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo’jaliklari faoliyati.

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasi Tarmoq malaka ramkasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo’lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	N seksiyasi – Boshqarish bo’yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko’rsatish	78 Ishga joylashtirish	78.1 Ishga joylashtirish bo’yicha agentliklar faoliyati	78.10 Ishga joylashtirish bo’yicha agentliklar faoliyati	78.10.0 Ishga joylashtirish bo’yicha agentliklar faoliyati
			78.3 Xodimlar bilan ishlash bo’yicha boshqa tashkilotlar faoliyati	78.30 Xodimlar bilan ishlash bo’yicha boshqa tashkilotlar faoliyati	78.30.0 Xodimlar bilan ishlash bo’yicha boshqa tashkilotlar faoliyati
		81 Binolarga xizmat ko’rsatish va landshaftni obodonlashtirish bo’yicha faoliyat	81.1 Obyektlarga kompleks xizmat ko’rsatish	81.10 Obyektlarga kompleks xizmat ko’rsatish	81.10.0 Obyektlarga kompleks xizmat ko’rsatish
			81.2 Yig’ishtirish bo’yicha faoliyat	81.21 Binolarni umumiy yig’ishtirish	81.21.0 Binolarni umumiy yig’ishtirish
				81.22 Binolarni va sanoat obyektlarini yig’ishtirish bo’yicha boshqa faoliyat	81.22.0 Binolarni va sanoat obyektlarini yig’ishtirish bo’yicha boshqa faoliyat
				81.23 Yig’ishtirish bo’yicha xizmatlarning boshqa turlari	81.23.0 Yig’ishtirish bo’yicha xizmatlarning boshqa turlari
			81.3 Obodonlashtirish bo’yicha faoliyat; landshaftni rejalashtirish	81.30 Obodonlashtirish bo’yicha faoliyat; landshaftni rejalashtirish	81.30.0 Obodonlashtirish bo’yicha faoliyat; landshaftni rejalashtirish

		82 Ma'muriy-boshqaruv, xo'jalik va boshqa yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	82.1 Ma'muriy va yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	82.10 Ma'muriy va yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	82.10.0 Ma'muriy va yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat
			82.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatish	82.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatishning boshqa turlari	82.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatishning boshqa turlari
2	O seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84.1 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik boshqaruv	84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi	84.11.3 Mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati
			94 A'zolik tashkilotlari faoliyati	94.20 Kasaba uyushmalari faoliyati	94.20.0 Kasaba uyushmalari faoliyati
		95 Kompyuterlarni, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni hamda motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.2 Shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.21 Maishiy elektronika jihozlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.21.0 Maishiy elektronika jihozlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
				95.22 Maishiy tovarlar, uy va bog' inventarlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.22.0 Maishiy tovarlar, uy va bog' inventarlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
				95.24 Mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.24.0 Mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

				95.25 Soatlar va zargarlik buyumlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.25.0 Soatlar va zargarlik buyumlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
				95.29 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	95.29.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
		96 Boshqa shaxsiy xizmatlar ko'rsatish	96.2 Sartaroshxonalar, go'zallik salonlari kunduzgi spa va shunga o'xshash xizmatlar	96.21 Sartaroshlik faoliyati	96.21.0 Sartaroshlik faoliyati
				96.22 Go'zallik salonlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyat	96.22.0 Go'zallik salonlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyat
3	T Seksiyasi – Uy xizmatchilari yollovchi va o'z iste'moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari faoliyati	97 Uy xizmatchilari yollovchi uy xo'jaliklari faoliyati	97.0 Uy xizmatchilari yollovchi uy xo'jaliklari faoliyati	97.00 Uy xizmatchilari yollovchi uy xo'jaliklari faoliyati	97.00.0 Uy xizmatchilari yollovchi uy xo'jaliklari faoliyati
		98 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	98.1 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli tovarlar ishlab chiqarish	98.10 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli tovarlar ishlab chiqarish	98.10.0 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli tovarlar ishlab chiqarish
			98.2 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli xizmatlar ishlab chiqarish	98.20 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli xizmatlar ishlab chiqarish	98.20.0 Uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun turli xizmatlar ishlab chiqarish

“Mehnat munosabatlari, mehnat resurslarini rivojlantirish va boshqa barcha turdosh sohalari” tarmoq malakalar ramkasi quyidagi kasbiy guruhlar va mashg’ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg’ulot guruhi kodi	Mashg’ulot guruhi nomi
1	11140	Siyosiy va jamoat tashkilotlarining yuqori mansabdor shaxslari
2	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
3	12112	Ma’muriy faoliyat sohasidagi tarkibiy bo’linmalar rahbarlari
4	12120	Kadrlar va mehnat munosabatlari bo’yicha tarkibiy bo’linmalar rahbarlari
5	12130	Strategik rejalashtirish va faoliyatni rivojlantirish sohasidagi tarkibiy bo’linmalar rahbarlari
6	12190	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma’muriy ishlar bo’yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
7	12221	Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rahbarlari
8	12230	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bo’limlari rahbarlari
9	13241	Tovarlarni yetkazib berish, tarqatish va shunga o’xshash faoliyat bo’yicha xizmatlar rahbarlari
10	13490	Boshqa mashg’ulot guruhlariga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko’rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
11	14390	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
12	23202	Kasbiy ta’lim tashkilotlarida kasb ta’limi ustalari
13	23591	Qisqa muddatli tayyorgarlik (treninglar), qayta tayyorlash va malaka oshirish bo’yicha professional-mutaxassislar
14	23592	Kasbga yo’naltirish bo’yicha professional-mutaxassislar
15	24231	Kasbiy integratsiya va ishga joylashish bo’yicha professional-mutaxassislar
16	24232	Kadrlar va inson resurslari bo’yicha professional-mutaxassislar
17	24233	Mehnat munosabatlari bo’yicha professional-mutaxassislar
18	24240	Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish sohasidagi professional-mutaxassislar
19	24312	Reklama va targ’ibot bo’yicha professional-mutaxassislar
20	24321	Jamoatchilik bilan aloqalar bo’yicha professional-mutaxassislar
21	26199	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga huquq sohasidagi professional-mutaxassislar, b.g.k.
22	26311	Iqtisodchilar (umumiy)ga
23	32550	Fizioterapiya yordamchi xodimlari va mutaxassislari
24	32570	Mehnatni muhofaza qilish va atrof muhitni muhofaza qilishning tibbiy jihatlar bo’yicha mutaxassislar va inspektorlar
25	33330	Mehnat shartnomalari va ishga yollash bo’yicha agentlar (inspektorlar)
26	33430	Ma’muriyat yordamchi xodimlari
27	33599	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga kiritilmagan inspektorlar, b.g.k.
28	41201	Kotiblar (umumiy yo’nalish)
29	43130	Ish vaqti va ish haqi hisobi bo’yicha xizmatchilar
30	44199	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga kiritilmagan ofis xodimlari, b.g.k.

31	51410	Sartaroshlar
32	54140	Qo'riqchilar
33	54190	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan fuqarolar va mulkni himoya qiladigan xizmatlar xodimlari, b.g.k.
34	72319	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan mexanik transport vositalarini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar, b.g.k.
35	73131	Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ishchilar
36	73171	Yog'och va unga o'xshash materiallardan badiiy buyumlar tayyorlovchilar
37	74123	Maishiy elektr asboblari elektromontyorlari va elektromexaniklari
38	75122	Qandolatchilar
39	75340	Mebel pardozchilari va turdosh kasblar ishchilari
40	75360	Poyabzalchilar va turdosh buyumlarni tayyorlovchilar
41	93330	Yukchilar
42	96130	Hudud farroshlari (dvornik/supuruvchilar) va boshqa shunga o'xshash ishchilar
43	96210	Kuryerlar, yuk tashuvchilar, shveysarlar va boshqa shu kabi ishchilar
44	96222	Vaxtyorlar va konserjlar
45	96290	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan malakasiz xodimlar, b.g.k.

3. Tarmoq tahlili

Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasiga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mas'ul hisoblanadi.

Quyidagilar Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish — mehnat bozorini tahlil qilish va ishsizlarning hisobini manzilli (nomma-nom) yuritish, iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoq va sohalarida mehnat resurslariga bo'lgan talabni prognoz qilish, mehnat bozorida tarkibiy muammolarni aniqlash va nomutanosibliklarning oldini olish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlikda ishlash;

aholi bandligini ta'minlash dasturlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish — har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta'minlash dasturini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog'lash;

kambag'allikni qisqartirish — kambag'allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganish hamda natijasi bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasiga (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) har oyda ma'lumot kiritib borish;

hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish — mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchisi) faoliyatini uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko'nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat me'yorlariga rioya etilishini o'rganish, mehnat huquqini ta'minlash hamda mehnatni muhofaza qilish — munosib mehnat tamoyillari va xalqaro standartlarni joriy etish, mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mehnat huquqlarini himoya qilish, shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan quyidagi davlat xizmatlari ko'rsatiladi:

1. Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish va ularga ishsizlik nafaqasini tayinlash;
2. Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
3. Fuqarolarni ishga joylashtirishda ko'maklashish;
4. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan tadbirkorlik subyektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o'rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratish;
5. Hunarmandlarning "Hunarmand" uyushmasiga a'zolik badali xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish;
6. "Usta-shogird" an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatayotgan hunarmandlarga (kulollarga) shogirdlar tayyorlash, zarur xom ashyo sotib olish va shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlash uchun subsidiya ajratish;
7. "Usta-shogird" an'analari asosida hunar o'rgangan shogirdga mustaqil o'z faoliyatini boshlash uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishga subsidiya ajratish;
8. Ustalarga internet saytlarini tashkil etish, o'z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama xarajatlari uchun subsidiya ajratish
9. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga foizsiz ssuda ajratish;
10. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kasanachilarni kasb-hunarga o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun subsidiya ajratish;
11. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga kasanachilik yoki hunarmandchilik asosida uy sharoitida ishlayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joyini moslashtirish hamda moslashtirilayotgan har bir ish joyi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish;
12. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga kasanachilik bilan shug'ullanayotgan ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan fuqarolarga asbob-uskunalar va xom ashyo xarid qilish uchun subsidiya ajratish;
13. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya berish;
14. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya berish;
15. Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash;

16. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma;
17. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning malaka imtihonini o'tkazish va malaka sertifikatini berish;
18. Chet ellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirishga jalb etish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish;
19. Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablariga muvofiqlik to'g'risida xulosa berish;
20. Qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazlariga o'qishga kirish uchun yo'llanma berish;
21. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma;
22. Yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratish;
23. Ishsiz, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun subsidiya ajratish;
24. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi qo'lda gilam va ipak mato to'qish bilan shug'ullanuvchilarga ish o'rni yaratish sharti bilan gilam va ipak mato to'qish dastgohini xarid qilishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun subsidiya ajratish;
25. "Yaylov xo'jaligini rivojlantirish" uyushmasi a'zolariga qo'l mehnati uchun uskunalar xarid qilish bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun subsidiya ajratish;
26. Jismoniy shaxslarning aholi xonadonlarida baliq yetishtirish yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarida o'qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish;
27. Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo'lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish;
28. Tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz shaxsga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to'lovi uchun subsidiya ajratish;
29. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashni xohlayotgan ishsiz shaxslarga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun sarflanadigan xarajatlarni to'lash uchun subsidiya ajratish;
30. Kasb-hunarga o'qitish markazlarining o'quv xonalarida kasb-hunarga o'qitish qiyin bo'lgan ayrim kasblarni "usta-shogird" an'analari asosida

o'rganmoqchi bo'lgan yoshlarga yoki hunar o'rgatayotgan ustalarga subsidiya ajratish;

31. Kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o'qitish dasturlarida ishtirok etuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim tashkilotlari, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda uning hududiy filiallarining yoshlar va xotin-qizlarni o'qitishga sarflangan xarajatlarini kompensatsiya qilish.

Amalga oshirilgan ishlar:

2024-yilda kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga (2,1 foizga) tushirildi. Xususan, kambag'al aholi soni 3,3 mln kishini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 719 mingga kamaytirildi.

2024-yilda 18 990 mlrd so'mlik 326,6 ming mikroloyihalar ishga tushirilishi hisobiga 578,6 ming yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Bundan tashqari, dehqonchilik qilish uchun 61,4 ming gektar ekin maydonlari ijara asosida ajratilib, 158,4 ming nafar aholi daromad manbaiga ega bo'ldi.

"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish" dasturi doirasida 372,6 ming loyihalarga 6 841 mlrd so'mlik kredit mablag'lari ajratildi.

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida o'quv kurslarini tamomlagan va biznes rejalarni ishlab chiqib, sertifikat olgan 54,6 mingta tadbirkorlardan 49,2 ming nafariga (90 foiz) 4 845,4 mlrd so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, 67,7 ming nafar ishsizlarga, ayniqsa, kambag'al oila a'zolarining tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik faoliyatini rag'batlantirishga 355 mlrd so'm subsidiyalar ajratildi.

Vazirlik tizimidagi 82 ta (65 ta kasbiy ko'nikmalar markazi va 13 ta filiali, 4 ta JIEM qoshida) o'quv markazlari hamda 104 ta nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda 91 ta kasb-hunar yo'nalishlari hamda 8 turdagi xorijiy tillarga o'qitish yo'lga qo'yildi.

Kasbga o'qitish kurslarini tamomlagan 118,8 ming nafar bitiruvchilardan 107,1 ming (90,1 foiz) nafarining bandligi ta'minlandi. Xususan, 65 ming nafari doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi, 40,8 ming nafari o'zini o'zi band qildi, 1,2 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilindi.

Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish:

2025-yilda 5,2 mln aholini daromadli mehnat bilan bandligi ta'minlanadi. Ishsizlik darajasini esa 5 foizdan ya'ni, ishsizlikning tabiiy darajasidan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

1,5 million aholini kambag'allikdan chiqariladi va kambag'allik darajasini 6 foizgacha qisqartiriladi.

2025-yil davomida mavjud 65 ta kasbiy ko'nikmalar markazlari va nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda usta-shogird maktablarida 220 ming aholi 70 ta yo'nalishda o'qitiladi (bu maqsadga 268 mlrd.so'm ajratiladi).

Bunda, xususiy sektor mavjud infratuzilmaga keng jalb qilinadi. Ularning ulushini 12 foizdan 40 foizga oshiriladi;

- Koreyaning 5,5 mln.dollari granti evaziga Koreya standartlari asosida sanoatga ixtisoslashgan 11 ta kasblar bo'yicha xalqaro sertifikat tizimi joriy etiladi;

- Turkiyaning Xalqaro hamkorlik tashkiloti (TIKA) va Malakalarni rivojlantirish qo'mitasi (MYK) bilan hamkorlikda 30 ta kasb bo'yicha Yevropass talabi asosida malakani baholash va tasdiqlash xizmati yo'lga qo'yiladi;

- Shveysariyaning Global Swiss Academy bilan hamkorlikda mehmonxona va oshpaz-qandolatchilik yo'nalishlarida 5 ta xalqaro sertifikat (Certified Concierge Professional, Certified Hospitality, Housekeeping Executive, Certified Meeting Professional, Certified Beverage Professional) beruvchi o'quv kurslari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, Ayollarni tadbirkorlikka o'rgatish maqsadida Jahon banki bilan birgalikda 10 ming nafar ayollar biznes ko'nikmalariga o'qitiladi. O'qishni muvaffaqiyatli bitirganlarga o'z biznesini tashkil qilish uchun 5 ming dollar miqdorida grant ajratiladi;

- Aholini tadbirkorlikka o'rgatish, ularni o'z biznesini tashkil etishga ko'maklashishi uchun 10 ta hududda 22 ta biznes inkubator tashkil qilinadi. Bunda, har bir biznes inkubator uchun 230 ming dollar miqdorida Jahon bankining grant mablag'lari ajratiladi.

Vazirlikning tashkiliy tuzilmasi:

1. Vazirlik markaziy apparati;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari;
3. Tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari;
4. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi;
5. Malakani baholash markazlari;
6. Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti;
7. Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi;
8. "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini boshqarish direksiyasi;
9. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

10. Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;
11. Yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish hududiy jamg'armalari;
12. "Kambag'allik va mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi" MCHJ;
13. Toshkent shahridagi xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji.

Tarmoqda paydo bo'layotgan kasblar.

1. "Inson resurslari operatsiyalari menejeri/mutaxassis" xodimlar bilan bog'liq jarayonlarni (ishga qabul qilish, motivatsiya, rivojlanish, samaradorlik, korporativ madaniyat va boshqalar) strategik va texnologik yondashuv asosida boshqarishni anglatadi. Agar HR xodimlarni ishga olish va hujjatlashtirish bilan shug'ullansa, ushbu mutaxassis xodimlarning ishdagi umumiy tajribasi va samaradorligi uchun javob beradi.

2. "Xodim tajribasini loyihalovchi/me'mori" xodim ishga qabul qilinganda qanday qarshi olinishini, ish muhiti qanday bo'lishini, motivatsiya tizimi qanday ishlashini xodim nuqtayi nazaridan tahlil qiladi va yaxshilaydi. Asosiy vazifalar xodimlarning ishdan qoniqish darajasini tahlil qilish, jamoviy madaniyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ish muhitini qulay qilish bo'yicha takliflar berish, motivatsiya, rag'batlantirish va muloqot jarayonlarini yangilash.

3. "Inson resurslari tahlilchisi/Kadrlar ma'lumotlari tahlilchisi" HR jarayonlarini ma'lumotlar asosida tahlil qilish, xodimlar harakati (qo'nimsizligi) kabi ko'rsatkichlarni kuzatish va takliflar kiritish. Masalan, tashkilotda xodimlar nega tez ketyapti yoki qaysi bo'limda ish samaradorligi past — bu jarayonlarga mazkur mutaxassis mas'ul.

Tarmoqda yo'qolib borayotgan kasblar.

Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'yicha bo'lim boshlig'i (mudiri) — raqamlashtirish sababli alohida lavozim sifatida qisqarib, vazifalari inson resurslarini rivojlantirish (HR) mutaxassisi hamda buxgalteriya funksiyalari bilan birlashtirilmoqda.

Ish haqi va mukofotlar bo'yicha professional-mutaxassis — ish haqi va rag'batlantirish hisob-kitoblari raqamlashtirilgani sababli vazifalari HR mutaxassisi va buxgalteriya ishlari bilan integratsiyalashmoqda.

Nafaqalar bo'yicha professional-mutaxassis — nafaqa va ijtimoiy to'lovlar jarayonlari elektron tizimlarga o'tgani sababli vazifalari odatda kadrlar hujjatchiligi (HR administratsiya) hamda ijtimoiy paketlar (benefits) yuritish yo'nalishlariga qo'shilib bormoqda.

